

FRIDRIX BARBAROSSA VA UNING CHERKOV BILAN MUNOSABATLARI

Jahongirova Munira Muroddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Yakobjanov J.J

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rim papasi Aleksandr III va Muqaddas Rim imperatori Fridrix I Barbarossa o'rtasidagi siyosiy va diniy ziddiyatlar tahlil qilinadi. XII asrda Papa hokimiyatining mustaqilligi uchun olib borilgan kurashlar, imperatorning siyosiy ittifoqlari, Italiyadagi harbiy yurishlari hamda Venetsiya sulhi va uning natijalari yoritiladi. Shuningdek, Fridrix I ning ichki siyosati, savdo-sotiq va shaharlar rivojiga qo'shgan hissasi haqida ham so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Aleksandr III, Fridrix Barbarossa, Muqaddas Rim imperiyasi, Papalik, siyosiy ziddiyat, Venetsiya sulhi, Pasxaliy III, Lombard Ligasi, cherkov va davlat munosabatlari, Yevropa siyosiy tarixi, Genrix Sher, Lyubek, savdo aloqalari.*

XII asr Yevropasi siyosiy va diniy murakkabliklar davri bo'lib, ayniqsa, Rim Papasi va Muqaddas Rim imperatori o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bu davrga xos asosiy xususiyatlardan biridir. O'sha davrda cherkov faqat diniy emas, balki siyosiy kuch sifatida ham katta ahamiyatga ega edi. Muqaddas Rim imperatorlari esa o'zlarini nafaqat dunyoviy hokimiyat, balki ma'naviy yetakchilikka da'vogarlik qiluvchi shaxslar deb bilganlar. Ushbu ikki kuch o'rtasidagi ziddiyatlar har doim Yevropaning umumiy siyosiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatib kelgan.

Shunday sharoitda Papa Aleksandr III (1159–1181) o'z davrining eng nufuzli ruhoniylaridan biri sifatida papalik hokimiyatining mustaqilligini saqlab qolishga intildi. U imperator Fridrix I Barbarossaning siyosiy bosimlariga qarshi tura oldi va cherkov mustaqilligini himoya qildi. Fridrix esa o'z navbatida Papa hokimiyatini imperiya siyosatiga bo'ysundirishga harakat qildi. Bu kurash nafaqat ikki shaxs o'rtasidagi ziddiyat sifatida, balki butun Yevropa davlatlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli siyosiy mojaroga aylandi.

Papa Aleksandr III o'z davrining eng tajribali va siyosiy jihatdan zukko ruhoniylaridan biri bo'lgan. Uning asosiy maqsadi Papalik hokimiyatining imperator ta'siridan xoli, mustaqil diniy institut sifatida mustahkamlanishiga erishish edi. XII asrda Papalik va Muqaddas Rim imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar taranglashgan bir paytda, Aleksandr IIIning siyosati bu qarama-qarshiliklarning markazida turdi. U o'zining qat'iy pozitsiyasi, diplomatik harakatlari va keng xalqaro qo'llab-quvvatlovi bilan imperator Fridrix I Barbarossaga qarshi kuchli raqibga aylandi.

1160-yilda Aleksandr III Fridrix Barbarossani aforizmga uchratdi, ya'ni uni cherkovdan chiqarib, rasmiy tarzda la'natladi.¹² Bu harakat cherkov tomonidan imperator hokimiyatiga qarshi ochiq norozilik ifodasi edi. Aleksandrning bu jasoratli qadami uni Yevropaning ko'plab davlatlari, jumladan, Frantsiya, Angliya, Ispaniya, Vengriya, Lombardiya shahar-davlatlari va Vizantiya imperatori Manuil I tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'ldi. Ularning barchasi Aleksandr III ning siyosatini himoya qilib, uni qonuniy papa deb tan oldilar. Bu esa Papalik uchun katta siyosiy yutuq edi.

Ammo imperator Fridrix bunday qarorni tan olmadi. U Aleksandr IIIga qarshi turib, o'z tarafdorlarini yig'di va Pasxaliy III nomli o'zining "imperator papasini" sayladi. Natijada, Rim Papaligida rasmiy cherkov bo'linishi — ya'ni shizm yuzaga keldi. Fridrixning bosimi kuchaygan sayin, Aleksandr III 1161-yilda Frantsiyaga chekinishga majbur bo'ldi va u yerda 1165-yilgacha siyosiy muhojirlikda bo'ldi. Shu paytda taniqli ingliz ilohiyotchisi va siyosatchisi Jon of Solsberi: "Kim nemislarni xalqlar hakami qilib qo'ydi?" deya norozilik bildirgan edi. Bu fikr Aleksandr III ning siyosatini qo'llab-quvvatlovchilarning umumiy kayfiyatini ifodalaydi.

Aleksandr III harbiy kuchga tayanmasdan, diplomatik vositalar orqali siyosiy ustunlikka erishmoqchi edi. U imperatorni cherkovga qaytarishga harakat qildi, ammo bu urinishlar samarasiz yakunlandi. Shu bilan birga, u Vizantiya imperatori Manuil I ni Frantsiya bilan ittifoq tuzishga undadi. Manuil ham Aleksandrni qonuniy Papa sifatida tan oldi, bu esa Papa siyosiy pozitsiyasining yana-da kuchayishiga olib keldi.

Fridrix 1162-yilda Milan shahrini vayron qilganida, bu harakat Aleksandrning pozitsiyasiga nisbatan katta tahdid bo'ldi. Milan Lombardiya viloyatining yirik shahri bo'lib, Papalik tarafdorlari orasida katta ahamiyatga ega edi.¹³ Uning vayron qilinishi boshqa shahar-davlatlarni ham xavotirga soldi. Natijada Lombard Ligasi tuzildi, bu ittifoq Fridrixga qarshi birlashgan shaharlardan iborat bo'lib, Aleksandr III ni qo'llab-quvvatlashni maqsad qildi.

Muqaddas Rim imperatori Fridrix I Barbarossa o'z davrining eng qudratli hukmdorlaridan biri bo'lib, u imperatorlik hokimiyatini mustahkamlash va Papa ustidan siyosiy ustunlik o'rnatishga intildi. Uning bosh maqsadi cherkovni imperator siyosatiga bo'ysundirish, ya'ni cherkovni davlat siyosatining bir bo'g'ini sifatida ko'rish edi. Aleksandr III ning mustaqil papalik siyosati Fridrix uchun jiddiy to'siq bo'lib, bu ikki rahbar o'rtasida uzoq yillar davom etgan kurashga sabab bo'ldi.

1164-yilda imperator tarafdori bo'lgan "imperator papasi" Viktor IV vafot etgach, Fridrixning siyosiy maslahatchisi Rainald Dassel Pasxaliy III ni yangi papa sifatida saylashga undadi. Bu saylov ko'pchilik tomonidan shubha ostida qarshi olindi, hatto bu qarorning o'zida imperatorning roziligi ham bor-yo'qligi aniq emas edi. Shunga qaramay, Fridrix Pasxaliy III ni qonuniy papa sifatida tan oldi va Aleksandr III ni inkor etdi. Shu tariqa, Papalikda rasmiy shizm holati davom etdi.

¹² Robinson I. S. – "The Papacy, 1073–1198: Continuity and Innovation" – Cambridge: Cambridge University Press, 1990 – pp. 145–176.

¹³ Barber M. – "The Two Cities: Medieval Europe, 1050–1320" – London: Routledge, 1992 – pp. 102–121.

Bu siyosiy qarama-qarshilikda Fridrix o'z ittifoqchilarini topishga intildi. Frantsiya qiroli Lui VII bilan 1162-yilda Saint-Jean-de-Losne shahrida uchrashgan bo'lsa-da, Lui VII Aleksandr III ni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Bu uchrashuv natijasiz yakunlandi, va imperator Aleksandrni yolg'izlantirish uchun boshqa yo'nalishlarda harakat qila boshladi.

Ingliz qiroli Genrix II bilan ittifoq tuzish urinishlari ham shu maqsadda bo'ldi. O'sha paytda Genrix II muqaddas ruhoniylar Tomas Beket bilan jiddiy nizoga kirishgan edi, shuning uchun u ham Aleksandr III ni bosim ostida ushlab turishga qiziqish bildirgan. 1165-yilda Virzburgda bo'lib o'tgan Diyetda Fridrix tantanali ravishda Aleksandr III ni tan olmaslikka qasamyod qildi.¹⁴ Genrix II vakillari bu yerda Fridrixga yordam berishga va'da berishdi, ammo keyinchalik Genrix bu va'dalarni inkor etdi. Bu holat imperator siyosati uchun muayyan qiyinchiliklar tug'dirdi, biroq u baribir Papalikni taslim qilish niyatidan qaytmadi.

1166-yilda Sitsiliya qiroli Uilyam I vafot etgach, Fridrix bu vaziyatdan foydalanib Aleksandr III ga va Lombard shaharlariga qarshi navbatdagi harbiy yurish tayyorlay boshladi. Bu yurish natijasida Italiyada yana bir bor urush alangasi avj oldi. Ammo bu safar Fridrixning armiyasi Rimga yetib borganida, malyariya kasalligi tarqaldi va ko'plab askarlar halok bo'ldi. Shu fursatda uning eng yaqin maslahatchisi va "imperator papasi" siyosatini qo'llab-quvvatlagan Rainald Dassel ham vafot etdi. Bu voqea imperator strategiyasini butkul o'zgartirib yubordi.

1170-yilda Fridrix Frantsiya va Angliya o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, u Papa Aleksandr III ga elchilar yuborib, sulh imkoniyatlarini ko'rib chiqdi. Shu davrda Vizantiya imperatori bilan ham muzokaralar olib borildi. Bu yumshashlar Aleksandr III ni diplomatik jihatdan cheklab qo'ydi, chunki endi u avvalgidek kuchli ittifoqchilarga ega emas edi. Fridrixning bu siyosiy harakatlari uni yevropalik monarxlar orasida muvozanatli diplomat sifatida tanitdi.

1174-yilda imperator yana bir bor Italiyaga yurish uyushtirdi. Harbiy g'alabaga erisholmasa-da, 1175-yilgi Montebello sulhi orqali Lombard shaharlarini o'ziga bo'ysundirdi.¹⁵ Biroq, eng muhim daqiqada, uning asosiy harbiy ittifoqchisi — Saksoniya gersogi Genrix Sher — yordamini rad etdi. Bu holat 1176-yilgi Legnano jangida imperatorning yirik mag'lubiyatga uchrashi bilan yakunlandi. Aynan shu mag'lubiyat Fridrixni Aleksandr III bilan muzokaralarga majbur qildi.

1176-yilda Legnano jangida imperator Fridrix Barbarossaning mag'lubiyati uning siyosiy mavqeiga jiddiy zarba berdi. Bu jangda Lombard Ligasi kuchli qarshilik ko'rsatdi, va Fridrixning asosiy ittifoqchisi — Saksoniya gersogi Genrix Sher — yordamga kelmagani vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Bu holat imperatorni real siyosiy voqelikni tan olishga majbur qildi. U endi Papa Aleksandr III bilan sulhga kelishdan boshqa yo'l topa olmadi.

¹⁴ Abulafia D. — "Frederick Barbarossa: The Prince and the Myth" — Oxford: Oxford University Press, 1988 — pp. 67–98.

¹⁵ Абрамсон Г. — "История средневековой Европы" — Санкт-Петербург: Питер, 2003 — 512 б.

1176-yil oxirlarida Fridrix Barbarossa va Papa vakillari o'rtasida Ananiy shahrida dastlabki muzokaralar bo'lib o'tdi. Bu muzokaralar Venetsiya sulhi uchun imkon yaratdi. Sulh shartlariga ko'ra, Fridrix Aleksandr III ni qonuniy papa sifatida tan oldi. Bu holat Papa uchun katta diplomatik g'alaba bo'ldi. Fridrix esa bu orqali Italiyadagi mojarolarga chek qo'yishga, siyosiy barqarorlikka erishishga umid qildi.

1177-yil 24-iyulda Venetsiya shahrida bo'lib o'tgan tantanali marosimda Papa Aleksandr III va imperator Fridrix Barbarossa rasmiy ravishda yarashishdi. Sankt-Mark cherkovi oldida imperator Papa oldida tiz cho'kdi va undan tinchlik iltimos qildi. Papa esa unga ramziy "tinchlik o'pish"i berdi. Bu sahna yevropa tarixida siyosiy kelishuv va diniy murosaning yorqin namunasi sifatida tarixga kirdi.

Sulh shartlariga ko'ra, imperator o'zining ilgari tan olgan "imperator papasi" Paskaliy III ni rad etishga va uning tarafdorlarini jazolamaslikka va'da berdi.¹⁶ Shuningdek, Rim shahriga va uning atrofidagi hududlarga Papalik hukmronligi tan olindi. Biroq, Lombard Ligasi bu sulhga kiritilmadi, ya'ni ularning masalasi ochiq qoldi. Bu esa keyinchalik yana muzokaralarni talab qildi.

Sulh Fridrixga nafaqat Papa bilan, balki Vizantiya imperatori va boshqa yevropa hukmdorlari bilan ham munosabatlarini yaxshilash imkonini berdi. Ayniqsa, Papa Aleksandr IIIning tinchlikka intilishi va diplomatik murosaga ochiqqligi Fridrixning xalqaro maydondagi obro'sini tikladi. Venetsiya sulhi orqali imperator o'zining kuchini to'liq saqlab qololmadi, biroq u mojarolarni to'xtatdi va ichki siyosiy islohotlarga e'tibor qaratishga yo'l ochildi.

Sulhning eng muhim jihatlaridan biri — Fridrix endilikda Rim Papasi bilan emas, balki o'z imperiyasi ichida kuchayib borayotgan mahalliy feodallar bilan kurashishga to'g'ri kelganidir. Xususan, Saksoniya gersogi Genrix Sher bilan bo'lgan munosabatlar keskinlashdi. Genrix Sher Legnano jangida imperatorga yordam bermagani uchun jazolanishi lozim edi. Shu sababli, 1180-yilga kelib Fridrix uni barcha unvonlaridan mahrum qilib, uni surgunga yubordi. Bu hodisa imperatorning imperiya ichidagi siyosiy nazoratni kuchaytirish yo'lida muhim qadam edi.

Venetsiya sulhi orqali Aleksandr III o'zining mustaqil va siyosatdan nisbatan xoli papalik siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. U siyosiy bosimlarga qaramay, yevropadagi ko'plab qirolliklar tomonidan qo'llab-quvvatlangan yagona papa sifatida tan olindi. Bu esa Papalikning siyosiy va diniy mavqeini mustahkamladi. Venetsiyada erishilgan kelishuv bu ikki kuch — imperatorlik va Papalik — o'rtasidagi muvozanatni tikladi.

Fridrix Barbarossa tashqi siyosatda ko'plab muhim voqealarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, uning ichki siyosatdagi faoliyati ham muhim o'rin tutadi. U imperator bo'lgan dastlabki yillardan boshlab imperiyani mustahkamlash, markaziy hokimiyatni kuchaytirish, feodal bo'linishni cheklash, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va Germaniyada siyosiy barqarorlikni ta'minlashga intildi. Ayniqsa, Saksoniya gersogi Genrix Sher bilan bo'lgan

¹⁶ Канторович Э. – "Император Фридрих II" – Москва: Наука, 1999 – 688 б.

murakkab munosabatlar, Fridrixning ichki siyosiy faoliyatining markaziy jihatlaridan biriga aylandi.

Fridrix Barbarossa 1152-yilda imperator sifatida taxtga o'tirgach, dastlab bo'linib ketgan imperiyani yagona siyosiy tuzumga birlashtirishni maqsad qilgan edi.¹⁷ Uning harakatlaridan biri — muhim hududlar ustidan bevosita nazorat o'rnatish edi. Bu yo'lda u avvaliga Genrix Sherga sodiqlik bildirgan holda Bavariyani unga berib, Avstriyani esa Margravi Genrix Jasomirgottga gersoglik maqomida taqdim etdi. Bu harakat bir tomondan muvozanatni saqlashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan imperatorning siyosiy vositachilik rolini kuchaytirdi.

1154-yilda Genrix Sher Elba daryosidan sharqdagi kolonial hududlarda episkoplarni tayinlash huquqini oldi.¹⁸ Bu harakat germanlashtirish jarayonining siyosiy va diniy asosini mustahkamladi. Aynan shu yillarda Genrix Sher Lyubek va Myunxen kabi yirik shaharlarga asos soldi. Lübeckning tashkil topishi imperiyaning Baltika dengizi orqali savdo aloqalarini kengaytirishga imkon berdi. Lübeck orqali Gotland oroli aholisi bilan savdo bitimi tuzildi, elchilar Skandinaviya va Rus hududlariga yuborildi. 1189-yilda Novgorod bilan savdo shartnomasi tuzildi. 1180-yillarda nemis savdogarlari Riga shahriga yetib borishdi. Bu savdo aloqalarining rivojlanishi Genrix Sher tomonidan Mecklenburgning 1177-yildagi zabt etilishi bilan ta'minlandi.

Shunga qaramay, Genrix Sherning haddan tashqari kuchayishi Fridrix Barbarossani tashvishga soldi. Ayniqsa, 1176-yil Legnano jangida Genrix imperatorga yordam bermagani katta norozilik uyg'otdi.¹⁹ Bu holat Fridrixning Genrixni jazolash qarorini tezlashtirdi. 1180-yilda imperator Genrixni barcha unvonlaridan mahrum qilib, uni surgunga yubordi. Bu voqea Fridrixning ichki siyosatda markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan qat'iy harakatlarini ifodalaydi.

Fridrixning yana bir muhim siyosiy islohoti — 1158-yilda Leipzig janubida joylashgan Pleysnerland hududida imperatorlik yerlarining tashkil etilishi bo'ldi. Bu hudud imperatorlik nazoratidagi muhim strategik nuqta sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari, u 1158-yilda Praganing vladislaviya sulolasidan bo'lgan knyazi Vladislav II ni Bohemiya qiroli etib e'lon qildi. Bu orqali u imperatorga sodiq bo'lgan mahalliy hukmdorlarni qo'llab-quvvatladi.

Fridrix cherkov bilan ham murosali munosabatlar o'rnatishga harakat qildi. 1158-yilda Bremen arxiyepiskopligiga siyosiy vakolatlar qayta berildi. Bu esa g'arbiy imperiyadagi cherkov siyosatining markazlashuviga xizmat qildi. Shu tarzda imperator diniy doiralarda ham o'z ta'sirini kuchaytira oldi.

Fridrix Barbarossa davri Yevropa tarixida muhim burilish nuqtalaridan biri sifatida baholanadi. U Rim imperiyasi an'alarini tiklash, imperatorlik hokimiyatini kuchaytirish va Rim papaligiga qarshi kurash orqali o'z zamonasining eng kuchli siyosiy arboblardan

¹⁷ Abulafia D. — “Frederick Barbarossa: The Prince and the Myth” — Oxford: Oxford University Press, 1988 — pp. 67–98.

¹⁸ Hollister C. W. — “Medieval Europe: A Short History” — New York: McGraw-Hill, 2002 — pp. 213–230.

¹⁹ Абрамсон Г. — “История средневековой Европы” — Санкт-Петербург: Питер, 2003 — 512 б.

biriga aylangan. Uning Papa Aleksandr III bilan bo'lgan nizosi, diniy mustaqillik va siyosiy ustuvorlik uchun olib borilgan keskin kurashning yorqin namunasidir. Fridrix bir necha bor Italiyaga yurish qilgan, lekin Lombard shaharlarining mustaqillikka intilishi va ittifoqlari natijasida harbiy muvaffaqiyatlarga to'liq erisha olmagan. Legnano jangidagi mag'lubiyat esa uning papa bilan yarashishiga olib keldi. Shu bilan birga, Fridrixning ichki siyosiy islohotlari ham katta ahamiyatga ega bo'lib, imperiyadagi siyosiy barqarorlik, savdo aloqalarining rivojlanishi, shaharsozlik va nemis madaniyatining kengayishiga xizmat qilgan. Uning Genrix Sher bilan bo'lgan munosabatlari, mustaqil feodallarni jilovlash yo'lida olib borilgan qat'iy siyosati va imperiyaning chekka hududlarida mustahkamlanishga qaratilgan choralari, uning uzoqni ko'ra oladigan davlat arbobi bo'lganini ko'rsatadi. Fridrix Barbarossa nafaqat Germaniya, balki umumevropaviy miqyosda ham chuqur iz qoldirgan hukmdor hisoblanadi. Uning siyosiy va harbiy faoliyati, papa-imperator munosabatlariga oid siyosiy jarayonlar, ichki islohotlar va tashqi aloqalar orqali u Germaniya imperiyasining kuchli markazlashgan davlatga aylanishi uchun asos bo'ldi. Shu bois, Fridrix Barbarossa shaxsiyati o'rta asrlar tarixida alohida o'rin egallaydi va uning davri siyosiy, diniy hamda iqtisodiy jihatdan chuqur tahlilga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Канторович Э. – “Император Фридрих II” – Москва: Наука, 1999 – 688 б.
2. Абрамсон Г. – “История средневековой Европы” – Санкт-Петербург: Питер, 2003 – 512 б.
3. Hollister C. W. – “Medieval Europe: A Short History” – New York: McGraw-Hill, 2002 – pp. 213–230.
4. Robinson I. S. – “The Papacy, 1073–1198: Continuity and Innovation” – Cambridge: Cambridge University Press, 1990 – pp. 145–176.
5. Barber M. – “The Two Cities: Medieval Europe, 1050–1320” – London: Routledge, 1992 – pp. 102–121.
6. Abulafia D. – “Frederick Barbarossa: The Prince and the Myth” – Oxford: Oxford University Press, 1988 – pp. 67–98.